

Laylo ALIYEVA

she'rlar
DUNIYO

shdek erib bormoqda...

821.512.162-1

A-49	2020/15-30
Alvarez	Fardo
Olivero	Justicia
	Bermudez
	- 1608

2020/15
30

LAYLO ALIYEVA



821.0 3-10-20
448

Laylo Aliyeva

Dunyo
tushdek erib bormoqda...

S h e ' r l a r

Toshkent
«KAMALAK»
2018

UO'K: 821.512.162-1

KBK: 84(5Aze) A49

A 49

Laylo, ALIYEVA.

Dunyo tushdek erib bormoqda... /She'rlar/ L. Aliyeva.-
Toshkent: "Kamalak" nashriyoti, 2018. - 160 b.

So'z boshi muallifi va tuzuvchi:

Samir Abbosov

Haydar Aliyev nomli

Ozarbayjon Madaniyat Markazi direktori

(Toshkent)


Tarjimon:

Shahlo Qosimova

ISBN 978-9943-5365-3-1

© Laylo Aliyeva

© «Kamalak» nashriyoti, 2018



N1 32642
1

UETC/509

Tuzuvchidan	8
Hech yolg'iz emassan, U bor yoningda...	13
Menga kuch ber, Oллоhim!	15
Iblis	18
Men ko'rman	21
Omina buvimga	25
Elegiya	28
Parvona	32
Ko'zlaringni unutilmasman	36
Ayrilmaylik	40
Boku	42
Rimda, chang o'rindiqla	44
Vaqt	47
Ketaman	50

Jodugar yo malaksan?	56
Jonsiz kapalak	58
Yolg'izoyoq yo'lda	62
Kadar	65
Sening-la bir suhbat qilayin deyman...	68
Ko'k dengiz	71
Qadrli onlarim o'g'irlama sen	74
Qora quv qush	77
Ijodkor qo'llar	78
Yolg'on	81
Sevgi va nafrat	85
Insonlar	87
Ketma, onajon!	90
Menga bir so'z ayt	96
Ketma	99
Tun	102

Oqqush	105
Zahroning xotirasiga	112
Noma	115
Qalbinga tupurdilar	118
Poyezd, vagon, relslar, yo'l...	122
Sen ketding	126
Ko'z yoshlari...	128
Sog'indim	134
Tark eta olmasman hech qachon seni	136
Chiroqlar	138
She'rim	141
Ey, mening muhabbatim	144
Ey mahzun xazon fasli,	148
Yuragim	151
Bir oz yig'lagim keldi	156
Yana yolg'izman	158

Tuzuvchidan

Laylo Aliyeva boshqalardan ajralib turadigan o'z she'riy dunyosi va qarashiga ega bo'lgan iste'dodli Ozarbayjon shoirasidir. Yoshlik chog'laridanoq nozik tabiatli muxlislar diqqatini jalb etgan va muhabbatini qozongan shoira dunyo yuzini ko'rgan qator kitoblarida qalbining nafis ohanglarini qog'ozga ko'chirib, insonlarga tabiiylik, soddalik va insonparvarlik kabi oliyanob hislarni singdirishga intilgan.

"Ketma, onajon", "Bir oz yig'lagim keldi", "Oqqush", "Parvona", "Har kimning o'z intihosi", "Ko'zlarim ko'r bo'ldi" kabi inson ma'naviy olamining tubidan sizib chiqqan ta'sirli va ko'ngilni erkalovchi she'rlari bilan adabiyotimizga qadam qo'ygan iste'dodli shoira ning asarlari yosh ijodkorlar uchun tuganmas ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan.

*Mening she'r dunyom,
sevaman seni,
Chunki sen sofsan, qadr donsan,
Rostgo'ysan – yolg'ondan yiroq,*

deya kuylagan muallif she'riyatga o'z qalb dunyosi deb boqadi, uni ruhining eng tiniq oynasi deb ataydi, hatto g'amgin holda ham she'r bilan o'zini shod-xurram hisoblaydi, tanholik, yolg'izligiga she'r barham berganini e'tirof etadi.

Islom olamining taniqli faylasufi Abu Turxon shunday yozadi: "She'riyatning yuksak burchi ilohiy go'zallikni ko'ra bilishdadir va poeziya sof, nozik tuyg'ularning yig'indisidir".

Olamning oddiy ko'z ko'ra olmagan ilohiy go'zalliklariga shaydolik ham shoir, ham rassom Laylo xonim asarlarining negizini tashkil etadi va bu asarlarda haqiqiy hayot manzarasi jonlanadi.

Adabiyot hayot ko'zguisidir, shoir va yozuvchilar turli asarlar yaratsa-da, ularning obykti va subykti albatta inson, uning hayoti, tuyg'ulari, tushunchalari, ma'naviy olami bo'ladi. Laylo xonim ham asarlarida o'z atrof-muhitida yuz bergan voqea-hodisalar, boshidan kechirgan musibatlar, hayot baland-pastliklari, sevinchi va kadari, yaxshilik va yomonlikni samimiy she'riyat tili bilan o'quvchiga yetkazadi.

She'riyat osmon ob-havosini yerga armug'on etib, atrofimizda ro'y bergan hodisalarni jonlantirmoq, insonni

ruhlantirib, qanot bermoq, parvoz azmi yaratmoq va sevinch baxsh etmoq uchundir. Shoira Laylo Aliyeva ham yuragining tubidan otilib chiqqan sehrli soʻzlari ila nafis hislarini, qalb iltiroblari, oliy istaklarini sodda va sheʼriy tilda oʻquvchilar bilan boʻlishadi. Sevimli bobosi – Qzərbayjon xalqining milliy rahnamosi Haydar Aliyevning aziz xotirasiga bagʻishlangan “Elegiya” asari millionlab insonlar qalbini larzaga solgan. Bu sheʼrda shoira judolik, hasrat hisi ila oʻrtangan nozik koʻngilning kechinmalarini tilga oladi:

**Yulduzlar zinaga aylanib bir on,
Oy nuri yoʻlimni yoritisa edi.
Koinot qaʼriga chiqib shu zamon,
Seni yer yuziga qaytarsam edi.**

**Koshki shamol sasim eshita olsa,
Olib ketsa koʻnglim ohin sen tomon.
Shunda koʻkni tutib oʻksik faryodim,
Hasratim, sogʻinchim boʻlardi ayon.**

Laylo Aliyevaning sheʼrlarini oʻqigan har bir oʻquvchi uning botiniy olamini his etadi, fikr dunyosini, falsafiy dunyoqarashini anglaydi.

O'zbek tiliga tarjima qilingan she'rlar to'plamida "Menga kuch ber, Ollohim", "Men ko'rman", "Elegiya", "Yolg'iz emassan", "Sevgi va nafrat", "Insonlar", "Ketma", "Boku", "She'rim", "Yuragim" va boshqa qator she'rlari ilk daf'a xorijiy tilga o'girilib, do'st o'lka o'quvchilariga taqdim etilmoqda.

"Dunyo tushdek erib bormoqda..." deb nomlangan kitob ruhi, madaniyati, odat-an'analari, dini, tili bilan Ozarbayjon xalqiga yaqin bo'lgan o'zbek she'riyat muxlislari tarafidan maroq bilan qarshi olinishiga aminligimizni izhor etamiz.

Shoira Laylo xonim Aliyevaning she'rlari hozirga qadar "Kaspiy" gazetasi va "Kaspiy" tahsil tashkilotining "Ozarbayjon adabiyotini tanitaylik!" shiori ostida amalga oshirilgan loyihalar doirasida turk va fors tillariga tarjima qilinib, Istanbul va Tehronda nashr etilgan. Toshkent shahrida o'zbek tiliga tarjima etilib, kitob holida o'quvchilarga e'tiboriga havola etilayotgan "Dunyo tushdek erib bormoqda..." she'rlar to'plami Ozarbayjonning O'zbekistondagi elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomli Ozarbayjon Madaniyat Markazi va "Kaspiy" tahsil tashkilotining hamkorlikdagi loyihasi sifatida amalga oshirildi.



Dunyo
tushdek erib bormoqda...

Hech yolg'iz emasan, U bor yoningda...

*Kecha ... quyosh seni tark aylagan dam,
Bulut-la yuzini to'sganda oy ham,
Tilga kirganida qalbingdagi g'am,
Yana his etasan – yolg'izsan, odam.*

*Do'stlar yo'qlamasa tug'ilgan kuning,
Dushman istehzosi qalbing tig'larkan.
Bor ovoz-la nola qilmagil sira,
Bilki, U bir so'zsiz do'ling tinglarkan.*

*Xotiradan yulib boshdan o'tganni,
Shamol olib ketsin, aslo kuyunma.
Yozning ko'z yoshiga aylansa-da qor,
O'zgalar dardidan tasalli kutma.*

*Bu yorug' olamda tanho bo'lsang ham,
Qolsang ham ikki yo'l oralig'ida,
Dunyo bo'm-bo'shligin ko'rib tursang ham,
Bil, yolg'iz emassan, U bor yoningda...*



Menga kuch ber, Oллоhim!

*Menga kuch ber, Oллоhim!
Tilimdan tushmasin bu sof duolar!
Kuch ber menga, samimiy bo'lgum....
Mendan yiroq bo'lsin barcha yolg'onlar!*


*Kuch ber menga, alvido degum,
Bu badnafs olamning havaslariga!
G'araz ne ekanin butkul unutmum,
Kuch ber, **singih** ketay samo qa'riga!*

*Qanotim butoqdek silkinsin asta,
Dunyoning yuziga boqayin bu on.
Ko'rayin behuda kalondimog'lik,
Qulayotganin tik jarliklar tomon!*

*Kuch ber, g'azabini shashqator yoshin,
Ostida yashirgan inson tuyilsin!
Kuch ber, tosh berganga berayin oshim,
Qon esa qon emas, suv-la yuvilsin!*


*Kuch ber, birovlarning orqasidan men,
So'z ochib, malomat qilmayin minba'd.
Aytilajak so'zlar yuzga aytilsin,
Yuzga aytgan so'zdan sog'ayar qalblar.*

*Kuch ber, odamlarga hech achinmayin!
Insonga achinmoq xo'rlash-ku axir?!
Imonga kelinlar, kuchli bo'lsinlar,
Anglat, insonlarga ishonchni singdir!*

Nodarkor istaklar qilishdan asra, 
Menga shunday kuch ber, sendan kutmayin.
Bema'ni tilaklar ijobatiga,
Ko'z tutib ko'kni ham bezor etmayin.

Menga shunday kuch ber, bir go'dak bo'lay...
Iblis hiylasiga uchmayin aslo.
Hali kattalardan qusur yuqmagan,
Yangi tug'ilgan pok chaqaloq misol!

Gar birdan yanglishib, yo'ldan adashsam,
Bilayki, chiqmoqqa boshqa choram bor.
Kuch ber, insonlarning barisin sevoy,
Axir har insonda sening zarrang bor...




Iblis

*Ey iblis, juda ham uzoqlardasan...
Eshugimni qoqma, endi ochmayman.
Senga ishonmayman, ammo sen ishon –
Sening-la jahannam saddin oshmayman.*



*Men ham aldangandim senga bir zamon,
Odamzod hiylangga goho ucharkan.
Ammo tovba qilib, o'zni tutgan on,
Olloh gunohidan oson kecharkan.*

*Aqlim zaharlansin, gangisin deya,
Shirin sharobingni zo'rlab ichirding.
Ilintirib ming bir nayranglaring-la,
So'ngra bu jonimni burdalab, tilding.*



*Ilondek o'rmalab kirding ruhimga,
Tuzog'ing to'rida to'lg'andi bu jon.
Yo'ldan ozdirganing bir men emasdim,
Endi aldanmasman, minba'd, hech qachon!*

*Alvido, ashaddiy dushmanim mening!
Jirkanch ro'yxatingdan shilinsin nomum!
Yo'q, yaqin kelma, men boshqa bir odam,
Mudom malaklarni etgum hamrohim!*

Men ko'rman

*Men ko'rman... ko'zlarim zulmat qa'rida, } {
Kechani yo kunduz, bilmastlar ular.
Men ko'rman, ko'rlarga qilmaslar nafrat,
Aksincha, rahm ila qo'l uzatarlar!*

*Ko'rman, na qo'rquv bor, na bir xavotir,
Nimadan qo'rqayin, hayiqay nechun?
Ko'zi ochiqlarga achinaman men,
Qalblarin ko'zlari ko'rliigi uchun!*

*O'tkinchi havaslar komiga botib,
O'tadi hayotni, orzuni ko'rmay.
Men ko'rman, ko'rlarni shirin yolg'onlar,
Boli-la boqarlar Ollohdan qo'rqmay!*

*Ko'zlarimda parda, biroq ko'raman,
Insonlar talpinar bo'sh foniylikka.
Nimadir bo'ladi, deya ko'z tikib,
Boriga qanoat qilmaslar, nega?!*

*Ko'zlarimda parda... biroq sezaman,
Tabiat limmo-lim yorqin ranglarga.
Ko'rmayman... lekin xo'b keladi rahmim,
Kaltabin, fe'li tor, zarbi tanglarga!*

*Ular seza olmas, tuymas hech qachon,
Sevgi nafasining uyg'ongan onun.
Ko'rman! Lekin orzum qanot yozgan chog',
Ko'raman dunyoning naq to'rt tomonin!*

*Ollogha xayolan yaqin bo'lgan dam,
Kafunda samoni suyib tutaman.
Unutib batamom hayajonni ham,
Barcha to'siqlarni yengib o'taman!*

*Unutaman ranju ozorlarni men,
Dunyoning hasadu puch foniyligin.
Kimnidir kulfatdan xalos qilmoq-chun,
Bilaman ko'z emas qalb lozimligin!*


*Men ko'rman... ko'zlarim zulmatga mahkum,
Ko'rman, zamindagi har bir bandadek.
Keling, ro'shnolikni topaylik birga,
Zulmat qa'ridagin ko'rib ko'rlardek!*

Omina buvimga

*Baliqlar uchar qushdek...
G'alati bir tush ko'rdim...
Yonimda bo'lsang balki,
Ta'birin so'rarmidim...*

*Eshikda qor yog'adi...
Ruhim ham qor qa'rida.
Agar birga bo'lsaydik,
Isinardim bag'ringda.*

*Birgina nigohing-la,
Dardlarim aritarding.
Yonimda bo'lsayding, bil,
Kundek nur taratarding.*



*Bu' yog'du, bu shu'lani,
Bulut to'sa olmasdi.
Biz birga bo'lsak agar,
Kadar hech yengolmasdi.*

*Har dardga vaqt davomish,
Ammo bir tilagim bor.
Istardim o'tgan damlar,
Bir marta bo'lsin takror...*

*Vaqtdan avval malhamim,
Yupanchim o'zing eding.
Endi o'ring bo'sh qoldi,
Chunki u sening edi.*

*Hazillaring, kulishing,
Dorm yodimda qolgay.
Ko'zlarindagi jannat,
Jonim, qonimda qolgay.*

*Tark etding yer yuzini,
Makonting behisht bo'lsin!..
Abad porlab yulduzing,
Yo'llarim nurga to'lsin!*

Elegiya

(Bobom xotirasiga)

Yulduzlar zinaga aylanib bir on,
Oy nuri yo'limni yoritsa edi.
Koinot qa'riga chiqib shu zamon,
Seni yer yuziga qaytarsam edi.

Koshki shamol sasim eshita olsa,
Olib ketsa ko'nglim ohin sen tomon.
Shunda ko'kni tutib o'ksik faryodim,
Hasratim, sog'inchim bo'lardi ayon.

..



*Ovozing yangraydi dilimda mudom,
Bebaho, yoqimli, mehribon, mayin.
Koshkiydi daryolar takrorlay olsa,
Xotiralaringning hazin ohangin...*

*Ko'rsatsaydi ko'kda charx urgan qushlar,
Senga eltajak ul samoviy yo'lni.
Chin so'zim, bosh olib parvoz etardim,
Bag'ringa bosmoq-chun qadrdon qo'lni.*

*Bulutlar javobi sel, yashin bo'ldi,
Dengiz ham ko'z yoshun to'kdi shoshqator.
G'amingin oyga savol ila yuz tutdim,
Ayt, mayus chehrangda qanday sirlar bor?*

*Musibat dardidan jipslashdi tog'lar,
Judolik tumani egnida rido.
Himmating yog'dusi – yuragimga nur,
Uzoqlardan porlar menga doimo.*

*Agar bir so'qmoq yo'l bo'lsaydi chaqmoq,
Men shamoldek yelib, senga yetardim.
Ko'nglimni dog'lagan ranju kadarni,
Ohista jilmayib, bayon etardim.*

*Agar tars yorilsa zulmat daf'atan,
Falak agar yana umr etsa in'om.
Seni mahkam quchib olardim shu dam,
Ketishga qo'ymasdim, azizim, inon.*

*Sen asllar asli, sarasi eding,
Yashayman xotirang asrab, ardoqlab.
Diydor onlarini orziqib kutgum,
Ishonchim, mehrimni dilimda saqlab.*

Parvona

*Sham yonar, miltirar nur,
Parvonam bir lahza tur.
Sham nuri go'zal, ammo
O'zingni o'tga oz ur.
Tegrasida charx ursang,
U lovullab yonajak.
Tong yorishguncha, afsus,
Yolg'iz kuling qolajak....*



44.

*Qanotlaring baxmali,
Misoli toza ipak.
Sen go'zalni ko'rurmu,
Sevarmu otash-malak?
O'z-olov makrlidir,
Hayot kabi, kapalak.
Avval beshik tebratar,
So'ngra tobut, gul-chechak...*

*Qanoting qoqma, to'xta,
Mening xafif parvonam.
Tanholik qo'rqitmasmu? –
Yolg'on so'zlama, sanam!
Toqlik-la kurasharsan,
Umring bo'yi, yagonam,
Naylaylikki, o'zingga
O'tni etibsan hamdam.*

Mening kichkina do'stim,
Ranjima, xo'ib soddasan.
Yuraging gul yaprog'i,
Umid nedir, bilmassan.
To'rt turafingdagi kim,
Naftratni hech ko'rmassan.
Muhabbat – qiblagohim,
Sevgini Tangrim dersan.

O'ylaysanki, muhabbat
Hech vaqt xiyonat qilmas
Yolg'on qo'shilgan sevgi
Hech kimni zaharlamas.
Ammo zaif qalblar-chun
Nur so'nibdi tumanda,
Ularga jon bermak-chun,
Hech qolmagan gumon-da.

*Hiylagar yaltiroqlik
Tarafdori chang, tuman...
Pisib, o'zin ko'rsatmas,
Makr xuddi bir ilon...
Ruhlanib, qanot yozmas,
Uchish ham endi unut –
Sevgini tan olmagan,
Ishonmaganlar uchun....*


*Parvonam, sen baland uch,
Bilsang ham o'lishingni,
Kuyib kul bo'lishingni,
Uch! Uch! Olovingni quch!
Muhabbat misralarin,
Tuhfa etgil olamga.
Asl hayot ma'nosin,
Yoysin barcha qalblarga...*

Ko'zlaringni unutilmasman
(Bolalar uyining kimsasiz go'daklariga)

Muhrlandi qalbinga anduh-la to'liq,
Dengiz yanglig' teran nigohing sening.
Faqat sen... faqat sen jilmaymading hech,
Vujudim o'rtaydi xayoling sening.


Ayt, qanday o'tkazding bu sakkiz yilni?
G'addorlik, haqsizlik, achchiq ta'nalar...
Aytgil, kim so'ndirdi yuraging qo'rim?
Naqshlar chilparchin, unuqdi ranglar...





*Oqshomlar hasrating yanada ortar,
Devor ortidagi hayot chorlaydi.
Sen bilmagan olam fusunkor, go'zal,
Seni-chi, mo'jiza rom etolmaydi.*

*Yuzing tabassumdan libos kiysa ham,
Ko'z yoshing yiltirar ma'sum chehrangda.
Jajji mushtlaringga umidni tugib,
Avaylab-asraysan hovuchlaringda.*



*Issiq uy ko'rasan ko'zing yumganda,
Eshitasan kulgi, musiqa sasin.
Burkanib olgan cha bulut-ko'rpaga,
Og'ir xo'rsinasan... titrar nafasing.*

*Intiqib kutasan bayram kunlarin,
Barcha yolg'onlarga ishonging kelar.
Olamga cho'kkanda sukut-la zulmat,
Ona ovozini eshitging kelar.*

*Ammo u ovoz jim, afsus, ming afsus,
Hech qachon erkalab chaqirmas seni.
Bir umr hamrohing – qalbingdagi muz,
Yetimlik o'kinchi tark etmas seni.*

*Ko'zingda hasrating faryod qilsa-da,
Yoningda go'dakni asta suyaysan.
O'zing g'amxo'rlikka muhtoj bo'lsang-da,
Mitti qo'llaring-la boshin silaysan...*

Ayrilmaylik

*Menga bir o'z so'zla o'zing haqingda,
Ko'nglimda uyg'ondi bir telba maroq.
Tanholik beayov ezsa-da qalbim,
Ammo haqiqatga yetgum chuqurroq.*

*Bu dunyo o'tkinchi, tasalli berma,
Jimgina bo'g'aman dardim, alamim.
Erib ketar bari muz parchasidek,
Suvga aylansa-da, o'shaldir g'amim.*



*Qo'rqmayman, tasalli menga nodarkor,
G'urur tasalli-la aslo do'st bo'lmas.
O'zing yorlaqagil, yo Parvardigor,
Sen izn bermasang, hech kim ayirmas.*

*Menga bir oz so'zla o'zing haqingda,
Sasingdan quvonchim ko'kka yetgudek.
Ko'zlaring bunchalar azizdir menga,
Aksimni ko'raman xuddi ko'zgudek..*

Boku

*Vasf etmoq mushkuldir go'zalligingni.
Sha'ningga ash'orlar bitilgan sayin.
Unib-o'sdim nurli, issiq bag'ringda,
Sendek qadrdonni qaydan topayin?*

*Uzoq yurtlar kezdim, bo'lding yodimda,
Ba'zida hasratdan ko'z yoshum to'kdim.
Maftunman, sehringga o'qiyman tahsin.
Sensizlikdan abgor, notavon bo'lgum.*



*Qayerda bo'lsam ham lafting sezaman,
Noming eshitganda tarqaydi kadar.
Ko'z ochib ko'rgan maskanim o'zing,
Sevaman eng so'nggi nafasim qadar.*

*Xazar¹ atri, ko'hna Ichkari shahar...
Absheron hovuri, Xazri², Gilavar³...
Mehmonlar suhbatlari, shodon qahqaha,
Mening qadrdonim, jonajon go'sha,
Boku, ona shahrimga, sog'indim juda...
Butun latofating, jozibang men-la...*

¹ Xazar – Kaspiy dengizi

² Xazri – shimoliy Kaspiy dengiz shamoli

³ Gilavar – Kaspiy dengizining janubi-g'arbiy qismida esuvchi (janubiy) shamol

Rimda, chang o'rindiqa

*Ko'hna Rim, noyabr, chang o'rindiqa
O'tiribman sokin, mayus, jimgina.
Yonimda bir daydi. xayolga cho'mgan,
Qiziq, g'arib qalbdan neler bor ekan?*

*Ichkilik, tamaki isi aralash,
Kir-chir ust-boshidan ko'nglim behuzur.
Bu sho'rlik safilga qaradim bot-bot,
Hayotdan bezdimi yashab zo'r-bazo'r?*

*Yo'lovchilar bir-bir boqardi bizga,
Hayron nigohlari sanchilar tig'dek.
Ehtimol, o'xsharmiz bir oz, ajabo?
Chunki aldamaydi u ham meningdek.*

*Aldamoq-chun biror sababi ham yo'q,
Orqaga yo'l yopiq, oldinda jarlik,
Yo'qotganin topmoqqa havasi ham yo'q,
Yashashdan to'ydiridi shum darbadarlik.*



*Udamay uyquga taldi bechora,
Unutib bir nafas ko'rgiliklarin.
Bir savol fikrimni tortar betinim,
O'rtamizda bir o'xshashlik bormikin?*

*Rim, qarag'ay osti, chang o'rindiqda
Javob topdim o'z savolimga shu on –
Har birimiz nochor, gunohkor banda,
Hayot yo'llarida sarson-sargardon.*

Vaqt

*Ey vaqt, shoshmasangchi, to'xtatil bir oz,
Shoshma, meni kutgil, so'zimni tingla.
Qayga oshiqasan, so'zla yashirmay,
Bo'lishay sirlarim men ham sening-la.*

*Bilishni istardim, manziling qayer,
Qayga yugurasan qo'rquvni bilmay?
Hayot, umrlarni qoldirib ortda,
Churq etmay o'tasan, hech bilintirmay.*

*Ne sinoat bor, ayt, sadog'ang bo'lay,
Dunyoda tengi yo'q ajib narsami?
Halovating olgan ne ekan, bilay,
Aytaqol to'ldirmay sabr kosamni.*


*Anglagan-bilganim ozmikan balki?
Yoki keragidan ortiqmi, qaydam...
Hovuchimdan oqib ketmoqda borim,
Yolg'iz qolgum, faqat buni bilaman.*

*Ne-ne savdolarni ko'rarmish, evoh,
Atigi bir onga ochilgan ko'zim.
Anglayman... bir nochor bandaligimni,
Ko'zlarim yumilar, tugaydi so'zim.*



*Angladimki, olam ipakdek naftis,
Shishadek mo'rt... ammo sinishi qiyin
Tabassum niqobin yuzimga tutib,
Bardosh-la yashayman, ortiq naylayin?*

*Buyuk Vaqt, bu dengiz, bu bo'sh ayvonni,
Bu onni, kemani, unutm, yod et.
Meni tashlab ketma bu tanholikda!
Iltimos, meni ham birga olib ket.*



Ketaman

*Ketaman, ketaman! Yaxshi qol, do'stim!
Ko'rishguncha, degan javob kutaman.
Mayli, hatto bir so'z dema, istasang,
So'zsiz ham sevgingni men his etaman.*

*Uchib ketgum ko'kka qushlar misoli,
Va lekin qushlardek yerga qaytaman.
Bilmadim, haqiqat senga kerakmi?
Ammo men rostini senga aytaman.*

*Na fol, na bashorat qo'limdan kelar,
Bilolman yo'limda yana nelar bor.
Ammo sevishimni yaxshi bilaman,
Sevgim in'om etgan qanotlarim bor.*

Xudbin insonlardan bezorman, rosti,
Xush kuningda sherik bo'lolmas ular.
Soyadek ergashib yurarlar sassiz,
Bir madad, bir yordam qilolmas ular.

Yo'q, yo'q! Men hayotdan bezmadim sira,
To'g'risi, ozgina toliqidim xolos.
Uchib ketmoqdaman, yaxshi qol do'stim,
Unutmagil deya o'tindim xolos.

*Ketmoq qiyin ekan, qolmoq ham azob,
Ketsan, hammamizga yaxshi bo'lar deb.
Ketyapman, bilmayman qayga bosh urgum,
Ketyapman, farahli diydor kelar deb.*

*Ketyapman, ketyapman! Yaxshi qol, do'stim!
Tezroq qayt, orziqib kutaman, degil
Sening javobingdan ko'nglim bo'lsin tog',
Koinotni quchib, yayraysin bu dil.*

*Kun kelar, qaytaman ona shahringa,
Yagona umidim ko'rayin seni.
Qalbim chechak ochar misoli bahor,
Eshitgum entikkan nafasning sening.*

*Unutma, unutmam, yuragimdasan,
Do'stlarim ichida sen eng sarasi.
Kunu-tun sen mening tilagimdasan,
Ko'rishguncha xayr, Tangrim asrasin!*

*Ketyapman, ketyapman! Yaxshi qol, do'stim!
Sog'-omon qaytishga va'da beraman/
Taqdir yo'llarida o'zimni topib,
Umid bog'laridan gullar teraman.*

*Qanotim sindirsa ag'yor nogahon,
Yoshga to'lib qolsa ko'zlarim mening.
Bu yerda yasholmay badbaxt, notavon
Boshqa bir dunyoga ketdi de meni.*

Jodugar yo malaksan?

Sen xoim yuraksan...

Xasis shuursan...

Zamon erib oqmoqda,

Umringa o't qo'yursan.

Jodugar yo malaksan?

Bilmam qayda haqiqat.

Xasta bo'ldim sening-la,

Bu duomi, yo la'nat?

Axir ne istaging bor?

Nima kamlik qilgandi?

Qo'y, chalg'itma aqlimni,

Kulma! Holim xo'p tangdir.

Jazomsan ham ulushim,

Mendan so'r: "Ne istaysan?"

"Yuragimni, qo'y, ezma..." -

Desam, parvo qilmaysan.


Jodugarsan, jodugar,
Dastingdan qayga qochgum?
Bu haqiqatdir, faqat,
Ko'k yuzidir ilojim.

Bo'salaring og'udir,
Yetar, tovlama meni.
Ket, ko'zimga ko'rinma,
Ammo, toq qo'yima meni.

Kel, endi, e'tirof et,
Kimsan, bildingmi bu dam?
Yo'qsa, aro yo'llarda,
Kezarsanmi hali ham?

Jonsiz kapalak

Hoshiya ichida turar
atlas kapalak,
Qanotlari qilt etmas...
Igna-la yuragidan
qadab qo'yganlar uni
shushali hoshiyaga...
Jonsiz go'zalligi ila
devorga berar bezak –
bo'm-bo'sh, tanho xonaga...
O'zi jonsiz bo'lsa-da,
go'zalligin joni bor...
Har boqqan sezar buni
Qiziq... qiziq, bormikan
og'riqlarini tuygan?..

The background of the page features a large, faint, light-colored illustration of a rose in the upper right quadrant. The rest of the page has a subtle, repeating pattern of smaller floral motifs, possibly stylized flowers or leaves, in a light yellow or cream color. The overall aesthetic is soft and decorative.

Oydan yorug' osmonda
sho'rlik kun yuzin ko'rmas...
ipak qanotlarini
shabboda siypab o'tmas...
Shaffof shisha ostida
Qimiri etmayin turar,
Kadarini bir qimsa
na his etar, na kuyar...

*Nafislikdan bahramand
o'tib borar insonlar
zavq olur, lazzat olur
kapalak – o'lik jondan...
Go'zal so'zlar jaranglar
kapalakning sha'niga,
jonsiz latifligiga...
Bo'sh kalimalar yangrar
xudbinlarining tilidan*

*Tikilarlar shisha ortidan
Pitirlamas, titramas
u jonsiz borliq...
o'lik go'zallik...
Fikrga cho'maman jami bir lahza:
O'lim qarorin bermoqqa
haqqimiz bormi?
Qay vaqt sohib bo'ldik
ul ilohiy qudratga?!*

*Igna ila taxtaga
sanchilgan lol kapalak
Go'zalligi bois
hayot-la bir tamasiz
vidolashgan kapalak...
Ey ruhlarni, qablarni
erkalagan kapalak!..*


*Bu tun tushimga kiringanding,
Ammo tamom o'zgacha eding.
sho'x-shodon uchar eding...
Ko'z quvontirgan
gullar ufqida qanoting
ming bir rangda tovlanib,
lovullardi, yonardi,
fusunkor jimirlardi.
Buyuk zavq ila seni
tomosho qilar edim.
Va oyog'im ostida
shishali hoshiyani
toptab, ezg'ilar edim....*

Yolg'izoyoq yo'lda


*Yolg'izoyoq yo'lda ketardi odam,
Azot ko'targancha yer kurrasini.
Asrdan oshmoqqa shoshardi sho'rlik,
Vaqt-la to'ldirardi o'z kissasini.*

*To'xtagil, iltimos ketma, aziz do'st
Qayerga qochyapsan, bilasanmi sen?
Go'zalliklar bisyor, atrofga bir boq,
Ularning qadriga yetasanmi sen?*





*Sen insonsan, na tosh, na muz emassan
Tangri kulu loydan yaratdi jisming.
Bas nechun poyonsiz, mubham uzoqni,
Jajji qo'llaring-la quchmoq istading?*



*Qiyosan yulduz, qor, yellar ortidan,
Quyosh qo'llaringni qilar jizg'anak.
Umr muddatini bilasanmi, sen?
Ko'ksingda bezovta urmoqda yurak.*

*Kunlari asrdan uzoq bo'lsa ham,
Uzun umr ko'rmoq istaydi inson.
Jimgina fikrga tolar umid-la,
Sukutda hasrat ham, tashvish ham ayon.*

*Subh chog'i shafaqni ko'rish o'zi baxt,
Har tong ko'z ochmoqning shukronasi bor.
Ulguring hayotdan bahra olishga,
Berilgan umrning nihoyasi bor.*

*Dadil qadam tashla hayotda, inson,
Dard chekmoqqa sabab tog'dek bo'lsa ham.
Eng yuksak zirovani fath etar inson,
Dunyoda o'zi bir zarra bo'lsa ham!*

Kadar

*Kunlardan bir kun kadar
Asta eshigim qoqdi.
Men unutgan ekanman
Qulflarni osmoqni.
Ikkilanmasdan sira,
Kutilmagan mehmonim,
Ichkariga chorladim...
Mehmon-izlom bor uyning,
Fayzi ham bir boshqadir.*

*Kel, ey kadar, kela qol,
Achchiq choy quyib beray,
Ham lazzatli, ham xushbo'y
Murabbolar keltiray.
Doim yoningda bo'lgum,
Zerikib, bo'lma diqqat,
Zerikishga biz hali
Ulguramiz-ku albat.*

Balki tong otar-otmas,
Sekingina ketarsan.
Oqshom chog'i qaytaman,
Deya va'da etarsan...
Bilaman, sahar payti,
Yomg'ir shivalaganda,
Yuragim siqib chunon,
Tajftida isinarsan...

Bilasanmi, ey kadar,
Kelishing bilar edim
Sening-la olishishdan
Xursandman bilsang agar.
Oldindan piyolamni
Bir juft keltirgan edim.
Axir yaxshi bilaman
Meni hech unutmaysan,
Goh yolg'iz hamdamimsan...

*Bilasanmi, ey kadar,
Nazarga ilmas aydim,
Shaksiz-shubhasiz seni
Hayotimdan quvarim...
Ammo men umidvorman,
Hoynahoy tushunarsan
Oltina teng vaqtimni
Bekorga sovurmassan.*

*Balki soatlarimni
Bir urib sindirayin?
Boshqa qaysi yo'l bilan
Vaqtga qarshi turayin?
Agar mehmonim bo'lib
Qolmoq fikring bor ekan.
Marhamat, kel, kelaver,
O'z noming-la kadarsan,
Hayotga yangi rang ber...
Men chidayman, kelaver...*

Sening-la bir suhbat qilayin deyman...

*Sening-la bir suhbat qilayin deyman,
Ammo imkonı yo'q... yo'qman yoningda.
Unuta olmasman nigohing ila,
Aytgan so'zlaringni vido onında.*

*Baland ovoz ila aytgan so'zing ham,
Aytilmagani ham dilda esdalik...
Sening-la so'zlashmoq gunoh desalar,
Mayli, sukut saqlab suhbat etaylik.*

*Seni butkul yoddan chiqaray desam,
Kun emas, oy emas, yillar bo'lar oz.
Sening suhbatingga tashnaman, erkam,
So'zingdan yangragay qalbimdagi soz...*

*Bilarmisan, senga aytar so'zimni?
Aytolmasdim buni balki hech qachon.
So'nggi yulduz so'nib, zulmat cho'ksa ham,
Sening nuring ila yorishar har yon.*

*Yomg'ir yosh to'kmasin, sinmasin nurlar,
Kel, bugun sukutga men g'arq bo'lmayin.
Sendan azizrog'im yo'q bu hayotda,
Ketding, bir daqiqa hamdard bo'lmayin.*

*Ammo she'rlar bor, yashar abadiy...
Ayon qilar qalbda saqlaganimni.
Bilaman, senga ham yetkazajaklar,
Ayriliq chog'ida aytmaganimni.*

Ko'k dengiz

Ko'k dengiz... shabboda quyosh-la o'ynar...

Ko'k dengiz... chor-atrof tinch, osoyishta.

Ko'k dengiz... sukunat qa'rida yurak...

Bu yurak mushtoqdir yolg'iz qolishga.

Aql xastalangan, aql oh chekur,

Soyalar izg'ishar har to'rt tarafda.

Yurak pushaymonda, yurak ezilur,

Inson ummonida tanhoman yana.

Nechun meni nogoh chulg'adi kadam?

Qalbm bu og'riqqa chiday olarmi?

Shamol ham va'dasin unutmay bugun,

Uchirib g'amlarim, quvib solarmi?

*Ko'rdimki, shamol ham doimiy emas,
Dunyoda abadiy hech ne yo'q ekan.
Balki uyqu menga bir malham bo'lib,
Savollarga javob topilarmikan?*

*Javob ham, izoh ham bunda ho'p bisyor,
Savoli bo'lmagan kaslar xushbaxtmish.
Azob og'usida o'zga lazzat bor,
Yo'ldan ozdirmoqqa iblis ham shaymish.*

*Meni bulutlarga olib ket, shamol!
Olib ket, sovsin qalbindagi g'am!
Uvlama, suhbatga yo'q menda majol,
Ichimda yuzma-yuz jannat-la jahannam.*

Tog'ni urib tolqon qilsa-da inson,
Qani bir lahzani tutmoqqa qudrat?
Alamli nolamni eshitmas zamon,
Qayrilib qaramas menga zolim vaqt.

Hasratim tortqilar kuz, yoz etagin,
Yillar ortga qaytmas, o'tadi bir-bir.
Marhamatli Robbim, tilim duoda,
Gunohlarim ~~uy~~ et, sahvolarim kechir.

Ko'k dengiz... shabboda quyosh-la o'ynar...
Ko'k dengiz... chor-atrof tinch, osoyishta.
Yuragim betoqat ingrar, to'lg'anar,
Qo'rqar g'ariblikdan, yolg'iz qolishdan.


Qadrli onlarim o'g'irlama sen

*Qadrli onlarim o'g'irlama sen,
Eshikdan quvmagil jimjit tunlarim.
Hasrat ko'zimuzni ko'r qilsa hamki,
Ortiga qaytmaydi o'tgan kunlarim.*

*Ko'k yuzi bo'z rangli choyshab yopingan,
Yorqin bo'yoqlar-la rang bersam yetar.
Unsiz yolvoraman nur sochgan oyga,
Ehtimol uyqumda hayrat baxsh etar.*

*Qiziq, ba'zan issiq ko'rpa o'rniga,
Iliq so'zdan arir jismimdan titroq.
Sening-la bo'lishgum, ko'nglim taffini,
Yuzingni o'girma, ko'zlarimga boq.*

*Kechadan norozı bo'lib nolima,
Subh chog'in shukrona ila kutib ol.
Vaqt ham yelib borar uchqur ot kabi,
Tutib qolmoq uchun yo'q bizda majol.*



*Quoma sen g'urubni, quvmagil qishni,
Haydama zulmatni, tongga ilinsin.
Agar jala quysa, do'l yog'sa duv-duv,
Chorlagil uyingga, g'ami isinsin.*

*Ruhim ham daraxtdek sovrilar, sinar,
Shamollar yirtqichdek qutursa kun-tun.
Yuzingni o'girma, abadiy sevgum,
Abadiyat nedir sevganlar uchun?*

Qora quv qush^y

*Ey qora quv qush, tanhosan yana...
Inongum dersanmi ruhlarga hanuz?
G'amginsan, nafissan, ham g'oyat go'zal,
Juda sevimlisan... ham juda yolg'iz...
Ey qora quv qush, o'tmish onlarni
Eritib g'arq qilur daryo tubiga...
Minglarcha ifoda yo'q bo'lur bunda
Izsiz... nom-nishonsiz... esiz...
Unutilgan ruhlar ko'rishur yana...
Qalbi nur-la limmo-lim, ey qora quv qush,
O'tgan chog'larni sen solding yodimga.
Yanada ko'proq angladim, bildim,
Bu yaxshiligingni doim yodda tutgum...*






Ijodkor qo'llar

*Qo'llar bor, mo'jiza etadi bunyod,
Ularda mujassam uquv, mahorat.
Qo'llar bor, o'z mudhish sahvi dastidan,
Ta'nalar ostida qolar toabad.*

*Ijodkor ko'ngillar shushadan nozik,
Uni sindirmoqqa nigoh kifoya.
Alamdan ko'ziga dunyo qorong'u,
Za'faron yuziga g'am solar soya.*

*Odamlar Tangridan shuhrat tilaydi,
Zahmatkash qo'llarga shuhrat na darkor,
Mehribon, qadoqli, mehnatkash qo'llar,
Doimo nafasat ko'yida bedor.*

*Go'zallik shaydosi bo'lgan har inson,
Hech qachon o'ziga shuhrat tilamas.
Ijodkorlik uning hayoti, joni,
Faqat zahmatini qadrlashsa bas.*



*Ijodkor qo'llari cho'lni bog' etar,
Yoqimli kuylaydi ariqdagi suv.
Daraxtlar shiviri dilni chog' etar,
Gul-chechak atridan yuzlarda kulgu.*

*Tunni tongga ular fidoyi inson,
Bor bo'lsin muqaddas qo'llar qadog'i
So'lmasin gullaring, doim bo'l omon,
Bo'lmasin shodliging cheki, adog'i.*

Yolg'on

*Soxtaliku uydirmatlardan,
Kel, bir tavba qilaylik, yolg'on,
Nechun rost so'zlashdan qo'rqamiz?
Axir bundan yuraklar vayron.*

*Yurakka qil sig'magan onda,
Yolg'on sevinch keltirar emish.
Umidsizlik, qayg'u qa'rida,
Yolg'on nurdek miltirar emish.*






*Samimiy his-tuyg'ular,
Sir tutilsa abasdir.
Gunohing bo'lsa agar,
Ollohga yolvor, basdir.*

*Yolg'onning umri qisqa,
Bir kun kelib mahv bo'lar.
Biling, inson g'olibdir,
Haqiqatni aytsa gar.*

*Tinchingizni boy bermang,
Iblisga qalbni sotib.
Armonlarga ko'milmang,
Yuz-ming gunohga botib.*

*Boshingiz baland tutib,
Oshkor, dadil so'zlangiz.
Haqiqat sinqmas aslo,
Haqiqatdan qo'rqmangiz.*



*Balki, yolg'on-yashiq-la,
Oson baxtni toparsiz.
Unutmangki, kun kelib,
Pushaymonlar yeyarsiz.*

*Yolg'onning kasofati,
Uyqu bermas kechalar.
Yolg'onga ishontirmang,
O'zni aldab nechalar...*

Sevgi va nafrat

*Sevgi, axir nechun nafrat-la do'stsan?
Tiz cho'ktirar seni u bir kun kelib.
Muhabbatning o'zi behisob boylik,
Kimgaki sevgi yor har har jangda g'olib.
Dilsiyohlilarga aslo qoqilma,
Ko'zing ko'r qilmasin rashkning alami.
Bir on ham unutma, o'zni xor qilma,
Abadiy nur sochsın muhabbat shami.
G'ururga berilma, bu yo'ling sahovidir,
Senga o'tib bo'lmas bir sadd bo'lajak,
Qadring bilmaganga o'yinchoq bo'lma,
Kun kelib sha'ningga bir gard bo'lajak.
Sevgidan qo'rqanlar baxtiqarodir,
Baxtnung eng ulug'i sevgidir, bilgil.*

Umud qanotida qüchib samoni,
Nafratni batamom mahv etgil.
Istaysanki, sevgilar hech vaqt bo'lmasin ado?
Oyga o'z o'rnin berib, Quyosh botmasin aslo?
Bu tabiat qonuni, Quyosh chiqib, botajak,
Zimiston qa'rida ham orzular nish otajak.
Yolvoraman yig'lama, sevgi, sen menga inon,
Kechalari yig'lashing etar qalbmni giryon.
Na osmonda yulduzlar, na oydin tun tilagim,
Muhabbat nuri ila yorug' bo'lsin yuragim.
Sevgi, nega nafratni o'zingga yaqin bilding?
Nafratga yuragimdan men joy bera olmasman.
Muhabbat, sen aqlim izmingga olding,
Qalbm sen-la limmo-lim, sensiz yashay olmasman.


Insonlar

*Insonlar, buncha qiyin,
Sizni hamisha sevmog.
Ammo ahyon-ahyonda,
Osondir nafrat etmog.
Bir-biringizni seving,
Hech qachon ranjitmangiz.
Nurli tongga intiling,
Dillarni og'ritmangiz.*

*O'tgan ishga salavot,
Siz bugunni deb yashang.
Zamon ila barobar
Hamnafas odim tashlang.
Kadar, ko'z yoshi, qon, ter
Ichra o'tmasin hayot.
Umr buyuk tuhfadir,
Qadrlab, bo'lingiz shod.*

*O'jar vaqt charxpalagi
mudom aylanar tinmay.
Shashqator ko'z yoshlarim,
Alandan oqar tinmay.
Zanjirlasam qaniydi,
Bir zum ortga qaytarsam.
Tutib qolsam qaniydi,
Yo'qotganlarim ko'rsam...*

*Vaqtni bo'ysundurishga
Afsus, menda yo'q qudrat.
Borim etib poyandoz,
To'xtatar edim albat.
Insonlarga qarata,
Bir xitob etar edim.
O'ldirmang bir-biringiz,
Umr bir tutam, derdim.*




*Behuda qon to'kmangiz,
Jon olmang, bu gunohdir.
Shusiz ham zolim ajal,
Har eshikda ogohdir.
Kechiring vaqt borida,
Gina, kekni unuting.
Insoniylik yo'lida,
Umringizni sarf eting.*

Ketma, onajon!

*Ketma, ketma, onajon!
Meni aslo tark etma!
Bu sertashvish dunyoga,
Abadiyan g'arq etma.*


*Meni o'pib, erkala,
Qo'yma issiq bag'ringdan
Ko'kda yulduzlar yonsin,
Sehrlil nazaringdan.*






*Hali tili chiqmagan,
Nochor, o'jiz go'dakman.
Bir kitob o'qimagan,
Tasavvursiz, murg'akman*

*Ko'm-ko'k maysalar uzra,
Atak-chechak qilyapman.
Hayotni bilmasan-da,
Anglashga intilyapman.*




*Onajon, aytgil nechun,
Yig'laysiz ahyon-ahyon?
Nechun ulg'ayganimda
Bilgum bu dunyo yolg'on?*

*Men o'yinchoq o'ynayman,
Sizga hayot – o'yinchoq.
Sukut saqlab, o'ylayman –
Sizda ko'p siru jumboq.*




*Qo'rqishni o'rganaman,
G'amginlik, qayg'urishni.
Esiz, asta unutmum,
Qat'iyat-la yashashni...*

*Esiz, shirin orzular,
Asta unutiladi
Shirin ro'yolarimda
Faqat onam qoladi.*



*Umrım yetmaydı deya,
Koshonalar qurmayman,
Keksayib, armon ila
Yoshligimni izlayman.*

*Umrım o'tganı sayın,
Go'daklikka qaytaman.
Vaqt o'tkinchi ekanın,
Men e'tirof etaman.*



*Onajonim, ishongil,
So'zlashni bilganumda,
Yashashning yo'l-yo'rig'in,
Eshitaring tilimdan.*

*Ketma, onaizorim,
Ketmagil, yolvoraman.
Qayt, onajonim, faqat
Sen-la nafas olaman!*

Menga bir so'z ayt

*Menga bir so'z ayt...
Men ham javobiga bir so'zim aytay.
Shunday bir so'z topki,
Yuragimga joylab, sir kabi saqlay.
Qo'llaring uzat menga...
Qaytargum albat.
Ezilma,
Sevinchning hamisha hamrohi hasrat.
Bir nigoh tashla gohida menga...
Yuzimga tikilib boqsang qaniydi...
Qafas darichasi ochilib qolib,
Ruhim parvooz etur, sarhad bilmaydi.*

*Dilsiyohlik o'zi nimadir, nima?
Fikrlash bir oz.
Dilozorlik etmas bilganlar hech vaqt...
Ayriliq chog'idir, ayrilamiz biz...
Sabablar haqida zinhor o'ylama...
Mendan uzr tila...
Seni nochor etmas o'kinchu armon.
Soxtalik qo'rida bo'g'ilib, cho'kar,
Uzr so'ramoqni bilmagan inson.
Istagim juda ko'p...
Bajo et barin.*

*Ko'ngling to'q bo'lsin, ajrim ko'rasan.
Menga birni bersang, o'nni qaytargum,
Qars ikki qo'ldan chiqar, bilasan.
Qo'rquv senga hujum qilsa ham qo'rqma,
Ko'ziga tik boq, doim dadil bo'l.
Cho'chima yakkama-yakka olishuvlardan,
Kurashlar senga qat'iyat berar,
Faxrlan, hamda marhamatli bo'l.
Zulmatda adashganlarga uzat qo'lingni.
Lekin aslo tama qilma,
Yodda tut, yaxshilikni qil, daryoga tashla,
Baliq bilmasa, holiq.bilar...
Bir so'z de... qadri ummon qadar men uchun.
Afsona sevgiga ishonmasam-da,
Ishongim keladi sevganim uchun...*

Ketma

*Ketma, yolvoraman! Ketma, iltimos,
Meni yolg'izlikka etmagil mahkum.
Yonimda qolishing tasalli bir oz,
Tanholik onlari naqadar mash'um.*

*Baladparvoz so'zga ehtiyojim yo'q,
Bilsang, yolg'onidan bukilur qadim
Do'stlar yuz o'girdi, pushaymonim yo'q,
Faqat senga yaqin bo'lsam bas dedim.*

*Meni birovlarga alishma aslo,
Izlama birovdan xushbaxt chog'larni.
Olamga nafrat-la boqaman goho,
Chunki unda ko'rdim o'lik jonlarni.*

*Mudom la'natlayman meni o'ragan,
Istarasi issiq mug'ombirlarni.
Ko'zimga tik boqib, yolg'on so'zlagan,
Xoinu shayton-la tili birlarni.*

*Illijom, bir umr vafodirim bo'l,
Izlama birovdan ishonch, saodat.
Butun hayotimni sovurgum yelga,
Senda topolmasam vafo, sadoqat.*

*Boshqalardan doim turgil ajralib,
Dunyoda bebурdu qat'iyatsiz ko'p.
Taqdirga tan berib, yasharlar quldek,
Munofiqlik, quvlik ildiz otdi xo'p.*

Zinhor ular senga bo'lmasin o'rnak,
Mening nolalarim aslo unutma.
Hasrat iskanjaga olgan lahzalar,
O'tkinchi hislarga sira bo'ysunma.

Oqibati faqat dilsiyohlikdir,
Yurak yarasidan sızib turar qon.
Sha'nni, or-nomusni saqlamoq qiyin,
Ammo yo'qotmoqqa kifoya bir on.

Zulmat sahrosida yolg'iz qoldirma
Ketma, yolvoraman! Ketma, dil yonur,
Sendan ayrilmoqqa madorim yetmas,
Hali ketmasingdan o'rning bilinur...

Tun

*Ey tun, meni kechir, sevmayman seni...
Dildagi dardlarim oshkor etasan.
Kunduzi pinhona tutgan sirlarni,
Tunda yashirmoqni dushvor etasan.*

*Ey tun, af et meni, do'stim emassan,
Rost so'zni aytadi do'st bo'lgan har kas.
Haqiqat azob-la limmo-lim, ammo,
Kunduzgi soxta rang senda bilinmas.*

*Ey tun, qani ayt-chi, nega kelasan?
Unutganim barin solursan yodga.
Kel, sen uyg'otmagil xayollarimni,
Mudroq orzularim yoyma dunyoga.*

*Ey tun, zulmating-la qiynaysan nega?
Nahot ranj, kudurat shunchalar bo'lur? |
Insonlar qalbida yongan alanga,
Quyosh otashida ko'rinmay qolur.*

*Ey tun, xayoliy bir tinchlik baxsh etgil,
Qalbinga malham et sahar shu'lasin.
Sevinchimni qaytar, kadarni yashir,
Zulmat keltirmasin anduhlar sasın.*


*Yig'lama, menga hech rahming kelmasin,
Yoki istasang, kel, birga yig'laymiz.
Naqadar tirishib-urinsak hamki,
Vaqtini ortiga hech qaytarolmaymiz.*

*Xuddi boshqalardek ketgaysan sen ham,
Kunning g'ashligiga ketasan tashlab.
Demak, boshqalardek aldaysan sen ham,
Umid berib, so'ngra qalbim yaralab...*

Oqqush

O't chaqnadi
O'q uzildi
Nozanin oqqush
Ko'kka otildi...
Bir lahzada orzular
ko'lda bo'g'ildi...
Mo'jizaga ishonch
ana shu yerda o'ldi...

Ovchining yuziga
bir soxta kulgu qo'ndi...
Yuragi ~~jit-jit~~ kuydi,
vijdoni azob chekdi...
Mug'ombirona kulgu
barchasin pardaladi, panaladi.
Bir hayotga nuqta qo'yish bilan
o'z hayotiga lazzat keltirdi go'yo...



*Shunchaki bir o'q,
shunchaki bir on!
Sof muhabbatga dedi:
"Tur! To'xta!"*

*Shubhadan tamom uzoq,
Oydan yorqin sevgiga
ovchi qilmadi shafqat,
o'q uzdi beomon,
oppoq momiq patlar uzra
oqdi qon, qip-qizil qon...*

O'q otmoqqa odamzod
huquqli, iznlidir...
Bas yashamoq huquqi
bu dunyoda kimningdir?
Til-zabonsizlarni
istagancha ayblaymiz...
Afsus... hukmga kelgach,
g'oyat nohaq bo'lamiz,
adolatsiz bo'lamiz...

Yagona o'q uzildi...
Oqqushning qatliga
shamollar ham dod soldi...
Laylisidan ayrilgan
Majnun qush faryod chekib, qiyqirdi...
Laylisini chaqirdi...
Lekin javob kelmadi...
Nolasi arshga qalqdi
Butun boru yo'g'ini
kulin ko'kka sovurardi
toki ovchi dildorini ayasin
otishga ko'zi qiymasin...

*O'zin qurbon berardi
ovchi o'qin
kelib naq ro'parasiga.
Toki dilbari suzsın
tinuq osmon bag'rida.
Hasratda qolmoq esa
chidab bo'lmas azobdir.
Aynan bir o'q misoli
hasrat ham qalbni
poralar...*

*Bu o'qning kuchiga boq –
kadar dengizga do'ndi...
Bir nozanin oqqushning
yulduzi bunda so'ndi...
Dildorin yo'qotsa-da, yori yonida uchar
Yuragining qa'rida osimonni quchar.*

*Ho'ngrab-ho'ngrab yig'lamoq
qush uchun odat emas...
Naylaylik, ko'z yoshi ham
ayriliq yarasiga
xuddi zamondek malham.
Dardu alam dastidan
Devona bo'layozdi...
ul majnun ko'zlari-la
zulmat poyonin izlab
jon taslim qilayozdi...*

*Otilgan o'shal otasi
o'chdi xotirasidan
Har dardga vaqtning o'zi davodir...
Animo odamzod
qudratliroq bo'lsa-da,
Oqqushlar kabi sevmogga
qudrati yetmas,
bu jihatdan bechora
ojizu notavondir...*

Zahroning xotirasiga

(Fuzuliy) rayon, Alxonli qishlog'ida dushman o'qidan halok bo'lgan bir yarim yoshli qizaloq xotirasiga)

Nechun seni o'ldirdilar, qizaloq?
Gunohing ne edi go'dak yoshingda?!
Bag'riga oldi seni sovuq tuproq,
Ajal soya soldi murg'ak boshingda!

Tog'larni sevishga ulgurdingmi sen,
Seni ulg'ayishga qo'ymadi kimlar?
Maysalar ustida yugurdingmi sen?..
Beg'ubor qadaming suymadi kimlar?

*Dengiz mavjlarida suzdingmi, erkam,
Ko'rdingmi osmonda turna galasin?
Qaydan keldi bizga bunday og'ir g'am,
Kim keltirdi achchiq faryodlar sasin?!*

*Zaharxanda ila o'q uzdi vahshiy,
Na insof, na vijdon berdi bir sado.
Uyqingda buncha ham shirinsan bolam,
Qanday ko'zi qiyydi, yo qodir Xudo!*

*Yuragim qon yig'lar, bunday razillik,
Yelkangizda zildek gunoh emasmu?
Ma'sum qizcha jonin oldingiz nega?
Olloh bergan jonni Olloh olmasmu?!*

*Saqlab qololmadik, kechir malagim,
Butun o'lka senga tutmoqda motam...
Hayot ta'min totmoq bo'lmadi nasib,
Ketding oramizdan, hurim, farishtam.*

*Gulni xazon etgan u mal'un uchun,
Ajri ham munosib bo'lajak shaksiz.
Mitti qabr uzra gullar boshi xam,
Duo qiling, aslo chetlab o'tmangiz.*

Noma

*Senga biror marta maktub yozmadim,
Qalbm sirlarini etmadim izhor.
To'g'risi, yozishga azm qilganlarim,
Ko'rinmasin deya siyqa va abgor.*

*Afsuski, lug'atda so'zlar oz ekan,
Hislarim tug'yonin aks etmak-chun.
O'ylardimki, faqat sukut kifoya,
Ko'nglim nolalarin eshitmak-chun.*

*Senda juda sezgir, hassos yurak bor,
Anglaysan qanday kuy yangrar dilimda.
Nigohim kitobdek o'qib olasan,
Quyoshdek porlaysan qorachig'imda.*

*Tosh devor ortida izg'irin shamol,
Sezasan esganin ignasin sanchib.
Shimoliy ummonda viqor-la suzgan,
Kemadek ketasan muzlarni yanchib.*

*Shamlar erib bitsin zulmat qa'rida,
Yulduzlar yoritsin bizning yo'llarni.
Uyquda sen bilan ko'rishmak uchun,
Abadiy uyquga ketsam ham mayli.*

*Yana yarim kecha... ko'zguda aksim,
Men tundan qo'rqmayman, sen yodimdasan.
Yana yarim kecha... yolg'iz emasman,
Birga bo'lmasak-da, sen yonimdasan.*

*Zirvalarni fath et, qoyalardan o't,
Sohillarni o'pgan dengizlardan kech.
Poyoni ko'rinmas vodiylardan o't,
Ko'zlarim yo'lingda, bilgil, erta-kech.*

*Yosh to'kma. Bunga bir sabab ham yo'qdir,
Men sening abadiy yariming bo'lolmam.
Hayotimni qanday yarim yashayin?
Umrim charxpalagin hech to'xtatolmam.*

*Senga biror marta maktub yozmadim,
Bundan buyon ham jazm qilishim dushvor.
Afsuski, lug'atda so'zlar oz ekan,
Va lekin "sevaman" kalimasi bor.*

Qalbimga tupurdilar

Qalbimga tupurdilar

Yana... va yana...

Yo Rabbiy, chilparchin sindi yuragim.

*Mayda-mayda bo'lib, xuddi shishadek,
singan misralarga singdi yuragim.*

Boshimni qaysi toshlarga uray?

Rahm et o'zing, sabr ber, yaratgan Egam!

Bilishni istayman, balki bir lahza,

Kundan, oydan, yildan muhimmikan?


Afsuski, vaqtni to'xtatib bo'lmas,

Qadrlab yashamoq-chun bu turtkimikan?

Sanimiy bo'lmadi endi kulgular,
Tabbassum yashirar dardu alamni.
Ko'ngildan nozikroq nima bor, aytgil?
Sinsa, yamalmas, bersang-da olamni...

Titraydi bu ko'ngil ko'ksimda mudom,
Yum-yum yig'lamoqda, ovutmoq mushkul.
Dengiz to'lqinlari yutmoqda xuddi,
Yoshlarim g'arq etdi qa'riga butkul.

Qutqaray deymanu hech yo'q majolim,
Qo'lim, barmoqlarim menga bo'ysunmas.
Ko'zlarim olovi so'ndi anduhdan,
Nursiz nigohimda ma'no ko'rinmas.



*O'yga toldim, endi chor-atrof rangsiz,
Junjikib ketyapman bezgak tutgandek,
Ovozim bo'g'ilgan, faqat ingrayman,
Labimda taxir ta'm, zahar totgandek...*

*Kuppa-kunduz kuni qosh qoraymoqda.
Uchadi tollardan to'kilgan xazon.
Evoh, sahifadek yulinar bir-bir,
So'lg'in yuzim kabi mayus, za'faron.*

*Go'yo tabiat ham menga hamdarddir,
Qishdan darak berar ayoqli havo,
Vujudim ham xuddi bir muz parchasi.
Topilmas dardimga hech qanday davo.*

*Bu ne holat bo'ldi, bormi bir chora?
O'zimga kelolmam, urinsam-da xo'p.
Taassufki, guldan nozik ko'ngilga,
Malham bo'lganlardan, tupurganlar ko'p.*

Poyezd, vagon, relslar, yo'l...

*Poyezd, vagon, relslar, yo'l,
Tilaklar ayni – oq yo'l!
Yangrar g'ildirak sasi,
Ammo hech eshitilmas
Yuraklarning nolasi.*

*Yo'lovchilar har biri –
turli tole sohibi.
Ko'payar yo'l-yo'lakay,
Bir-bir... keta-ketguncha...
Poyezd borar bir maromda,
na sekinlar, na yelar,
Insonlarga vaqt berar –
Loaqal manzilga yetguncha,
Yolvormoqqa, tavbaga...
Balki gunoh, sahlarga...*

*Tunnel... zim-ziyo zulmat,
Umudlar so'nar bir on,
Uzoqdagi shu'ladan
Go'yo jonlanar zamon.*


*Poyezd yo'lini tanlab,
Yo'lida davom etar.
Vaqt esa juda mahdud,
G'animat soniyalar.*

*Ketmoqda u beshafqat,
Umr o'tgani kabi.
"Oxiri o'lim" degan,
Bevafo dunyo kabi.*

*Barchani to'plab borar,
Lekin har biri tanho.
Ko'zlar tikilar yo'lga,
Ne umidda, ajabo?*

*Aql izzitirob chekar,
Sukut saqlaydi shuur.
Poyezd, inson sasiga,
Sen quloq sol, shoshmay tur.*

*Zamon intilar olg'a,
Yana murvatin burar.
Millari yurganicha,
Bizni ham zamon yutar.*



*Bekatimiz ko'rinur,
Sevinamiz, shukur, yetdik.
Vagon ham bo'shab to'lar,
Vaqt oz, qani ketdik.*

*Hayot kabi ohista.
Poyezd yana yo'l oshar,
Yangi yo'lovchilarga,
Ko'hnalar joy bo'shatar.*

Sen ketding

*Sen ketding uzoqlarga,
Aytmading-ku, qay tomon?..
Olam kimsasiz... jimjit...
Atrof sovuq, qahraton.
Sen mendan yiroqdasan,
Zulmat qa'rida har yon...
Yoningga kelolmasman...
Deding: "Kelmak qatag'on!"*

*Axir sen meni ko'pdan,
Ko'p yillar tanir eding.
Irodam, sabotimni,
Xo'p yaxshi bilar eding.
Seni dunyolar qadar,
Sevgan men edim yolg'iz.
Qayga ketganing bilsam,
Borar edim izma-iz.*

O'tinchlarimni tingla,
Iltijolarim yod qil.
O't purkagan o'qlardan,
O'zingni ehtiyot qil.
Iltimos, o'zni asra,
Kelajak diydor uchun,
Yo'llaringga intizor,
Olis vafodor uchun.

Oy borib, omon qaytgil,
Tangrim madadkor bo'lsin.
Yuragimda otsin tong,
Saharim nurga to'lsin,
Saharim nurga to'lsin...

Ƙo'z yoshlari...

*Yig'lab olay dedim, nam bo'lmas ko'zlar...
Bu dilsuyohlikning gunohkori kim?
Muz tutdi diydalar, yoshlarim qirov...
Bir she'r asta chertdi ko'ngil eshigim...*

*Yig'lab olay dedim, bilmadim nechun,
Hech yig'lay olmadim.... ezildim tanom.
Qurung, yig'lamoq ham bir marhamatmish,
Kimga taskin berar, kimgadir orom.*



*Hayot, hech yashurmay ayt haqiqatni,
Qarshimda ko'rajak ne kunlarim bor?
Ba'zida ko'raman kelajagimni,
Lekin na xavotir, na armonim bor.*

*Nigohlarim nursiz, horg'inman o'zim,
Ko'nglim bo'm-bo'sh sahro... o'tda yondirar...
Yozilmay ham qoldi, oh, qancha so'zim,
Balki, taqdir shumi, axir kim bilar?*

*Chor-atrof sokinlik... jumjit qalbim ham,
Sukunat chulg'agan har tomirimni.
Qalbimga nogahon uya qurdi g'am,
Qo'rquv ham batamom tark etdi meni.*



*Hammaning bilgani "bir oz sabr qil,
Har bir qadamingni o'yla shoshilmay".
Mening-chi sabrim yo'q, aqlim, kechirgil,
O'z fikrimda qolgum, murosa qilmay.*

*O'z fikrimda qolgum, qolgum hamisha!
Buni ham vujudim, ham ruhim istar.
Meni ko'ndirishga urinmang, bekor,
Boshga tushganini ko'z ko'rar derlar.*

*Yanvar ham eshigim qoqmoqda endi
Izg'irin kezadi igrnasin sanchib.
Yaqinda quvonib xayrlashgandik,
Ajabo, tez qaytdi quchog'in ochib,*

*Qaytadi sevinib, suyunchini ber,
Bir yil ko'rishmadik seningla, deydi
Ammo menga esa tuyilar bu dam,
Kuni kecha bizda charx urar edi.*

*Yana yolg'iz qoldim toqlik bag'rida,
Naylayin, bunda bir jinoyat bormi?
Bo'lsa ham mayliga, eridi farqi yo'q,
Vaqt o'zi yuvajak gunohlarimni.*

*Jinoyat ham o'zi bir qaltis qadam,
Hech kim yashay olmas farishta kabi.
Mening o'z farishtam doim menga yor,
Hamisha yetaklar umidlar sari.*

*Sizlarga alvido deyman do'stlarim,
Ayriliq vaqtidir, salomat qoling.
Qisqa vaqt ichida yana qaytaman,
Har narsa qaytadi... bunga inoning.*

*Ming rahmat, alvido deyman sizlarga,
Ammo ko'nglim ketar bu "alvido" dan.
O'zimga pichirlab qo'yaman asta:
"Men diydor kutaman har bir sabohdan".*

Sog'indim

*Juda sog'indim seni,
Behad intizor bo'ldim.
Yo'lda qoldi ko'zlarim,
Kunlarni sanab to'ydim.*

*Sening qadrdon ising,
Ruhimni ingratmoqda.
Zolim sog'inch beomon,
Vujudim titratmoqda.*

*Ba'zan nafasim siqar,
Igna sanchar izg'irin.
Sog'inch qalbimni tirnar,
Xo'rsinaman betinim.*

Go'l ham his etar edi,
Bu zaif, so'lg'in holim.
Bag'rim tirnar hasrating,
Sezdingmi, qadrdonim?

Ertadan to kechgacha,
Seni o'ylab to'ymayman.
Albat bag'ringga qaytgum,
Boku, jonajon shahrim,
Seni juda sog'indim.....

Tark eta olmasman hech qachon seni

Qaylarga bunchalar tez oqdi zamon?

Eshigim tugiga yana qish keldi.

Yoz taftli ruhimni yutdi qahraton,

Sog'inch xastaligi hamrohum bo'ldi.

Bog'imda atirgul ochmas g'unchasin,

Xazar sohilida jimirlamas qum...

Hasrat otashidan o'rtanar dili,

Kimki yolg'izlikka bo'lurkan mahkum.

Nechun, nechun yurak junjiking yana?

Kimlar eritajak bu muz parchasin?

Isinib olmoqni hech istamaysan,

Seni ham chulg'adi ohi qish faslin.

Vaqt qaylarga oqib ketmoqda, qiziq?
To'xta, ketma, deya chunon yolvordim.
Ko'z ochib yumguncha qosh ham qoraydi,
Qo'llarim quyoshga uzatib qoldim.

Unga yetsa edi qo'llarim agar,
Yashirib qo'yardim o'sha zahoti.
Andog' quchoqlardim, qalbimga bosib,
Bo'lmasdi hech qachon kunning andog'i.


Ko'z yoshingga faqat kechalar guvoh,
Kechirgil, yuragim, kechirgil meni.
Aslo ranjitmasman, azizim, inon,
Olam qulasa-da tark etmam seni.

Chiroqlar

*Qorong'u ko'chada yonar chiroqlar,
Xuddi osmondagi yulduz misoli.*


*Qiziq, tun bo'yi ne tilar chiroqlar?
Balki ularda ham sevmak xayoli?*

*Yonarlar churq etmay, tippa-tik holda...
Yolg'izoyoq yo'llar yog'duga to'lar.
Qo'lni qo'lga berib o'tar soyalar,
Chiroqlar yuragi anduhga to'lar...*



*Sevgili yuraklar juft urar zavq-la,
Chiroqlar nuriga cho'mar, yo'g'rilar.
Balki, tabiatning bir iznini bu?
Ko'pincha sevmagan sevimli bo'lar.*

*Afsuski, na sevar, na yig'laydilar,
Bu oppoq shu'lalar biror g'am chekmas.
Ehtimol, kimgadir mansub bo'lishni,
Chiroqlar istamas, hech orzu qilmas.*



*Chiroqlarga boqib, o'yinga tolaman,
Seva olmasa ham, sevilmasa ham,
Nur sochib, yoritar sevganlar yo'lin,
O'zlari hayotda tanho bo'lsa ham.*

*Tanholikning o'zi bir go'zallikdir,
Hasrat ham bor unda, ham g'am otashi.
Behuda to'kmangiz ko'z yoshlaringiz,
Yolg'iz qolganlarning sel bo'lur yoshi.*

*Qorong'u ko'chada yonar chiroqlar,
Bu nurni, shu'lanini unutib bo'lmas.
Ular yuraklarini yoritar, ammo,
O'z sintiq qalblarini ovutib bo'lmas.*


She'rim

Mening she'r dunyom,
sevaman seni,
Chunki sen sofsan, qadrtonsan,
Rostgo'ysan – yolg'ondan yiroq...
Yonimdan chetlab o'tgan yillar
Menga oq yo'l tilar...
Ammo senga yetmoq
mushkuldir biroq...

Men o'z she'rlarimni
nega sevaman?
Chunki tobelikni bilmaydi ular!
Nigohlarida na xavotir,
na xijolat izi bor.
Zulmat, jaholatdan doim yuksakda ular!
Na qing'irlik bor, na badnazarlik,
Na g'iybat, na nolish, na shikoyat bor.

*She'rim solmoq joizmi
g'am-g'ussa qufusiga?
Axtarmang, topa olmassiz,
She'rim qolipga sola olmassiz...
U og'ochda uyadir.
Shoxu butoqlarni kesib, arralab,
o'pirib tashlasangiz ham
niyatingizga yeta olmassiz...
Ilhomim qanot yozib qushdek uchadi,
to'siqlarni yengib, ko'kni quchadi!*

*She'rimni sevaman
qudrati, salohiyati uchun...
U yuragimdan bir sas....
She'rim Tangri siridir,
anglamoq oson emas...
She'rimda har kalima
menga birday qadrdon, aziz.
Goh tunlari yozay, goho kunduz...*



*She'rimni sevaman,
U qalbimning, ruhimning
eng tiniq oynasidir...
entikkan nafasidir...
G'am qa'rida bo'lsam-da,
u bilan shod-xurramman.
Tanholikda qolsam ham,
she'rim bilan birgaman...*


Ey, mening muhabbatim

Eg oliy tuyg'u sensan,
Rabbimning tuhfasisan,
Ey mening muhabbatim.
Tangriga duo qilib,
Chin dildan tilagandim.
Shukrki, ko'kka yetdi,
Tangrimning hadyasini
Bir g'ilmoni keltirdi,
Sevgim, o'sha sen eding,...

Kulishing nurli osmon,
Ko'zingda quyosh porlar.
Boqaman, hech to'ymayman,
Surating meni chorlar.
Samoviy uyqulardan,
Yerda uyg'ondim go'yo.
Qalbidam chaqnab uchqun,
Yog'duga to'ldi dunyo.


Hasratlarimga shifo,
Dardimga malhanimsan.
Anduhlarimga davo,
Quvonchim, tasallimsan.
Ardoqlayman, sevaman,
Eng azizimsan mening.
Yuragimning sohibi,
Sen tengsizimsan mening.

Borlig'im, yagonamsan,
Malaklar boshing uzra.
Muqaddas ro'yolarni,
Men unutulmam sira.
Ruhim teran qatiga,
Yig'aman men barchasin.
Sahar mayin kulganda,
Quyosh o'g'irlamasin.



*Ey b'uyuk muhabbatim,
Umidvor kutdim seni.
Ilk boqish, ilk ko'rishdan,
Qalbga jo etdim seni.
Hech qachon ayrilmasman,
So'zimga ishon, erkam.
Sen-la endi bugunim,
Sening-la endi ertam.*

*Hamisha yonimdasan,
Yomg'irlar yog'sin, mayli.
Ko'kda chaqnasin yashin,
Shamollar essin, mayli.*



*Tangri yuraklar aro,
Nozik ko'prik qurarkan,
Armoni ushalmagan,
Ko'ngillar qotusharkan.
Loaqal shirin uyquda,
Visolga yetsin deya.
Hech qachon chin bo'lmagan,
Tushlar o'ng kelsin deya....*

Ey mahzun xazon fasli,

*Ey mahzun xazon fasli,
Oltin yaproqlaringda,
Uchirib ketgil meni.
Uzoqlarga olib ket...
Mag'rib tomon yuzlangan,
Kadarim ko'zin ochdi.
Bu sevgiga to'ymagan,
Devona muhabbatdan,
Yuragim arshga qalqdi.
Uchirgancha olib ket –
To'lqinlardan oshaylik,
Oppoq kemalar suzgan,
Kengliklarga olib ket...
Sevmak ne, anglab yetdim,
Qadrini anglab yetdim.
Yashagan har kunim-chun,
Beadad shukr etdim.*

*Men sevishni o'rganidin...
Sevish buyuk sevinchdir...
Afsus, menga aytilgan
Ma'nosiz, xush so'zlarga
Qalbindan joy bermayman,
barin yulib tashlayman,
hammasi o'tkinchidir.
Afsuski, men seni ham,
Seni yodimga solgan,
Har neni unutamam,
Ohlarimni yutamam.
Barchasin men yangidan,
Xuddi tong otganidek,
Yangi kun boqqanidek,
Eng boshidan boshlayman.*

*Hislarim, tuyg'ularim
Yangidan ochar chechak,
Ha, bu kun albat kelajak.
Sening nigohlaringni
Yodimda saqlamayman.
Kechmish xayollarimdek
Suyib-ardoqlamayman.
Olomon oqimida
Seni aslo tanimay,
Ko'nglingni yaralayman.
Quyosh ufqdan enib,
Ko'k yuzi qorayganda,
Birgina shu vaqtda
seni yodga olaman,
men seni xotirLAYMAN...*

Yuragim

Yuragim, so'zim tingla,
Menga keraksan nechun?
Dastro'molim beraymi,
Yoshim quritmoq uchun?
Yuragim, bilki, seni,
Vujudim-la, ruhim-la,
Anglamoqni istayman.
Ko'p yillar biz birgamiz,
Jonu tanmiz azaldan.
Men esa hali seni,
Tanimasman, bilmasman...

*Senga borib yetmoq-chun,
Seni ezib, tutmoq-chun,
Insonlar quruq qo'l-la,
Ko'ksimni pora-pora,
vayron etib, qulatur...
Qo'y, ulardan ranjima,
O'zingga yaqin olma.
Qalblaridagin sen-la,
Bo'lishganida ular,
G'am ham xushbaxt ko'rinur...*

*Bolalikdan bilaman,
Sen o'zga bir dunyosan.
Ayoqli kechalarda,
Ozorlardan bedorsan.
Orzu qanot yozganda,*

*Sen ham birga uchasan.
Tiniq osmon qo'ynida
Bulutlarni quchasan.
O'zing mushtdek bo'lsang-da,
Bag'ring buncha keng, do'stim?
Umidlarni jo qilib,
Urasan sen betinim.*

Yuragim, aytgil menga,
Seni qanday tinglayin?
Bir ishorang kifoya,
Tubingda ne bilayin...
Ochmasang sir-asroring,
Chidayman-da, naylayin.
Umrım bo'yi noumid,
Kutib yashashım tayin...

Yuragim, yolvoraman,
Hech ingrama, yig'lama.
Ko'z yoshing-la ko'ksimni,
Tilim-tilim tig'lama.
Qonim qaynab ketsa-da,
Seni baribir sevgum.
Balki, kunlardan bir kun,
Eng yaqin do'sting bo'lgum...

Aziz yuragim, senga,
Aslo dushman emasman
Seni hammadan yaxshi,
O'zim tushunay deymayman.
Qalbaki baxtiyorlik,
Faqat yuzda namoyon.
Ammo qabul etolmas,
Buni yurak hech zamon.

Kech bo'ldi, uyqu payti,
Xayrli tun tilayman.
Seningla suhbatimni,
Tonggacha to'xtatgayman.
Lekin sen vafodorim,
Tinmay urib turasan.
Kecha-kunduz beorom,
Holim ko'rib turasan.
Urgil, do'stim, uraver,
Titratsin sevinch, kadar.
Senga sodiq qolaman,
So'nggi nafasim qadar...

Bir oz yig'lagim keldi

Bir oz yig'lagim keldi,
Shunchaki yig'lab olay....
Yuragimni yashirib, yosti q ostiga qo'yay.
Yoki uni oynadan uloqtiraymi yo'lga?
Yo'q, yo'q... ozgina yig'lab olay...
Yoki bog'imizga olib boraymi?
Yoki dengizga otib, mavjlarga yuttiraymi?
Yo shamolga beraymi, uzoqqa olib uchsın?
Yo pushtaga ekaymi, nafis chechaklar unsın?
Nega indamas o'zi, ko'ksimni yorur nechun?
Eksam uni, ehtimol, atirguldek ochilar...
Ustiga bol surtsam gar, alamlarım bosilar...
Balki koptok qilmoq-chun bolalarga kerakdir?
Mana oling, o'ynangız, bu bir dardli yurakdir!
Yoki vaqtıni o'tqazmay mehmonlarnı chorlaymi?
Sharobga xo'b to'ydirib, yuragim yediraymi?
Axir bir so'z demadi bu bezovta yuragım,
Mendan nima kutmoqda, bormı unga keragım?...

*Men qalhimni sotyapman! Bozor peshtaxtasida!)
Ol, marhamat, ey odam, seni uni tekinga ol!
Ichi shiddatli quyun, o'tkir tikanga to'la...
Jonimni undan qutqar! Qutqar meni, ola qol!*

*Yomg'irli kunlarda ham ochmayman soyabonim,
Bu jonsarak yuragim yomg'ir ostida qolsin.
Balki sal orom olar...
Ranju ozorlaridan suvlari forig' qilsin.*

*Kechaning sukunati, tanholik to'la kadar...
Qalhim-la yuzma-yuzman subh shafaqi qadar.
Oy, Quyoshga yolvordim: "Olinglar uni mendan!"
Bilmam, bas axir nechun uni ayadim sendan?..*

Yana yolg'izman

*Yana yolg'iz qoldim, vafosiz do'stim.
Yangidan oy chiqdi, shabboda yelar.
Sarhushdir hayotdan ongim, shuurim,
Yolg'izman.... tun uzun, yurak orziqar.
Bir mening ko'zimga ilinmas uyqu,
Kunning xushbaxtligin poyonimikin?
Yanada yolg'izman tanho xonada...
Yolg'izlar kimlar-chun duo qilarkin?
Yana yolg'iz qoldim. Tanho, bir o'zim...
Umidvor kutganim bu emasmikin?*

*Mudragancha meni tark etdi Quyosh,
Ko'kda kamalak ham qoraydi nogoh,
Quyosh uyqudamish... Uyqu-la yana,
Hech til topa olmam men bu dam, evoh.
Kunduz mato uzra chekkan ranglarim,
Birma-bir uniqib ketur yo'qlikka...
Yana yolg'iz qoldim. Endi siz ayting –
Kimning toqati bor bunday toqlikka?*

Ko'zdagi qo'rquv, sarg'imalik,
Bularning baridan odamlar bezor
Hech kimga yoqmaydi nolayu fig'on.
Hasrat, umidsizlik, ojizlik, pido...
Hatto malaklar ham jallodga do'na,
Bechora, notavon mazlumlar uzra.

Qaydam, balki jajji mo'yqalamim-la,
Hayotimni bo'yab, rangladimmi men?
Bo'yashga berilib ketdimmi chunon,
Taqdirim shoshirib, aldadimmi men?
Ehtimol, rostdan ham meni ko'rmakni,
Hammaga noo'rin ta'qiy qildimmi?
Bormikan bir yurak, abad sevguvchi?
Asl, sof muhabbat endi qoldimi?

Oh, tanhoman yana, ammo qo'rqaman,
Yana yolg'izlik-la birga qolishdan.
Go'yo eshitmasman mungli qalbimni,
Go'yo bila turib aylandim toshga.
Oh, yana tanhoman... yagona iloj...
G'am pinjiga kirib, ko'nikib olay.
Yoki derazaga oq mato tortib,
To saharga qadar yuz rang-la bo'yay...

— Laylo Aliyeva

Dunyo
— tushdek erib bormoqda...
She'rlar

So'z boshi muallifi va tuzuvchi:

Samir Abbosov

Tarjimon:

Shahlo Qosimova

Sahifalovchi-dizayner:

Rustam Hidoyatov

Litsenziya: AI №193, 10.05.2011 y.

Terishga berildi: 07.05.2018 y. Bosishga ruxsat: 06.09.2018 y.
Bichimi 64x70 ^{1/4} O'fset bosma. Shartli bosma tab. 10. Garnitura:
Palatino Linotype. Adadi 500. Buyurtma №149.

«Kamalak» nashriyoti.

100129, Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30.

«SHAROFOV DILSHOD BAHROM O'G'LI» YTTning kompyuter
markazida saxifalandi.

Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30.

24.800 c.



Leyla Heynes